


## SURXONDARYO VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar- avgust)


Viloyat bo'yicha joriy yilning yanvar-avgust oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 6085,4 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,3 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 687,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 41,1%), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 5398,3 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 4,2 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 645,5 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,4 % ga ko'paygan) tashkil etdi.

### Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)



2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Termiz shahrida (26,0%), Boysun (5,5%), Termiz (4,7%), Denov (3,6%), Sho'rchi (3,0%) va Muzrabot tumanlarida (2,3%) qayd etildi.


### Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, (%)




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 41,1 % ga o'sdi va 687,1mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 11,3 % ulushiga to'g'ri keladi.

Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra 5398,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar- avgust oylariga nisbatan 4,2 % ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 88,7% ga teng kelmoqda.

**Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)**



**Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)**




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi bo'yicha Muzrabot (99,4 %), Uzun (99,1 %), Denov (97,0%) va Oltinsoy (96,9%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 11,3 % ni tashkil etib, eng katta ulush Termiz shahrida (34,8 %), Termiz (16,1%) va Jarqo'rg'on tumanlarida (5,5 %) kuzatilgan.

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Termez shahri (23,9 foiz), Denov tumani (20,6 foiz), Sho'rchi (8,7foiz), Sherobod (5,6 foiz) va Jarqo'rg'on (5,3%) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.


**Tumanlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi, foizda**



**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarning  
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**

	Yirik korxonalar (mlrd.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik tadbirkorlik (mlrd.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>687,1</b>	<b>141,1</b>	<b>5398,3</b>	<b>104,2</b>
Termiz Sh.	504,9	249,4	947,1	99,8
Oltinsoy	7,8	48,3	245,2	105,2
Angor	10,0	56,9	260,9	104,7
Boysun	12,5	76,9	246,1	107,8
Muzrabot	1,3	15,7	231,2	105,7
Denov	37,5	69,2	1217,9	105,2
Jarqo'rg'on	17,9	66,0	307,4	104,0
Qumqo'rg'on	10,6	53,9	244,3	104,5
Qiziriq	9,1	58,4	252,1	104,7
Sariosiyo	13,1	79,4	243,4	103,2
Termiz	26,1	107,1	136,5	104,3
Uzun	2,2	17,2	227,6	106,6
Sherobod	14,6	56,4	328,4	105,5
Sho'rchi	19,5	65,0	510,2	105,3

### Hududlarda kichik tadbirkorlik sub'ektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)



2019 yil yanvar- avgust oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 2356,7 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,0 %ga ko'paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar-avgust oylarida o'tgan yilga nisbatan viloyatning barcha hududlarida o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkilar Termez shahri (9979,6 ming so'm), Denov (3324,6 ming so'm), va Sho'rchi tumanida (2591,4 ming so'm) hissasiga to'g'ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar Qumqo'rg'on tumanida (1065,9 ming so'm), Sariosiyo (1265,5 ming so'm) va Uzun tumanida (1342,4 ming so'm) qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

## Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so'm	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>2 356,7</b>	<b>105,0</b>
	9 979,6	124,8
Termiz Sh.		
Oltinsoy	1 462,2	99,2
Angor	2 083,9	99,5
Boysun	2 187,6	103,2
Muzrabot	1 672,9	100,2
Denov	3 324,6	101,2
	1 519,2	98,7
Jarqo'rg'on		
Qumqo'rg'on	1 065,9	98,2
	1 533,7	99,2
Qiziriq		
Sariosiyo	1 265,5	99,5
	1 515,3	102,1
Termiz		
Uzun	1 342,4	99,3
	1 808,0	99,5
Sherobod		
Sho'rchi	2 591,4	100,6

Jumladan, 2019 yilning yanvar- avgust oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,1 % ni tashkil etib, 125,8 mlrd. so'mga yetdi yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,6% o'sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 87,8 % ulushi kichik tadbirkorlik sub'ektlari ulushiga to'g'ri kelmoqda.


## ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar- avgust)

Yanvar- avgust oylarida viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 1551,0 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 0,7 % ga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajmi kichik tadbirkorlik sub'ektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar- avgust oyilari yakunlariga ko'ra, 1044,8mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,9 % ga o'sdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 67,4 % ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa tumanlar bilan taqqoslaganda, Termiz (91,9%), Angor (91,2%), Boysun (89,4%) va Sariosiyo (85,0%) tumanlarida yuqori bo'lgan.

### Yirik va kichik korxonalar ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)



Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 32,6 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarining ulgurji savdo aylanmasining aksariyati Qumqo'rg'on (64,9%), Jarqo'rg'on (55,3%) va Muzrabot (53,9%) tumanlarida kuzatildi.




### Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mlrd.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>1551,0</b>	<b>100,7</b>	<b>506,2</b>	<b>89,9</b>	<b>1044,8</b>	<b>106,9</b>
Termiz sh.	308,4	92,1	145,0	79,8	163,4	106,9
Oltinsoy	57,6	94,0	30,7	84,6	26,9	107,6
Angor	125,2	109,6	11,0	119,4	114,2	108,8
Boysun	6,7	101,2	0,7	68,2	6,0	107,3
Muzrabot	88,4	104,6	47,7	104,7	40,7	104,5
Denov	233,9	100,3	65,3	84,7	168,6	108,1
Jarqo'rg'on	153,5	115,7	84,9	125,1	68,6	105,8
Qumqo'rg'on	60,6	92,2	39,3	85,9	21,3	106,5
Qiziriq	130,7	102,5	24,8	87,5	105,9	106,9
Sariosiyo	50,7	102,7	7,6	83,1	43,1	107,1
Termiz t.	125,7	99,2	10,2	53,4	115,5	107,4
Uzun	34,9	91,5	5,6	54,0	29,3	105,4
Sherobod	131,3	111,1	22,2	155,9	109,1	104,9

Sho'rchi	43,4	90,4	11,2	64,1	32,2	105,4
----------	------	------	------	------	------	-------

**Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining o'tgan yilga nisbatan o'zgarish sur'atlari, (%)**



Ulgurji tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o'sish sur'ati Sho'rchi tumanida (90,4 %) va eng yuqori o'sish esa Jarqo'rg'on tumanida (115,7) qayt etilgan.



Surxondaryo viloyat statistika  
boshqarmasi tashqi iqtisodiy faoliyat va  
savdo statistikasi bo'limi  
(0371) 230-85-82